

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA  
NEYROGRAFIKANING TA'SIRI O'RNI VA AHAMIYATI**

---

*Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi*

*Maxmudova Sevara Assatilla qizi*

*dr.makhmudova94@gmail.com*

*Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti*

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Qambarova Yoqutxon Obidjon qizi*

*yoqutxonobidjanovna979@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan neyrografikaning bolalar hayotidagi ahamiyati va ta'siri berib o'tilmoqda. Bundan tashqari neyrografika miyyaning turli qismlarini faollashtiradi, va ijodiy ko'nikmalarni oshiradi. Neyrografika orqali bolaning hissiy muvozanatini tiklash, ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda diqqatini jamlashga yordam berishi haqida keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Neyrografika, ijodiy ko'nikma, san'at, hissiy o'sish, psixologiya, stress, his-tuyg'u

Bugungi zamon talabi bolani sog'lom, barkamol, va yetuk bo'lishi juda ham muhim hisoblaydi. Hozirgi kunda ota-onalar o'z farzandlarini ham jismonan ham ma'nan yetuk bo'lishini juda muhim hsoblaydi. Afsuski, oramizda bunday insonlar kamayib bormoqda. Farzandining kelajagi haqida qayg'urmaydigan ota-onalar ham yo'q emas. Ota-onalari tomonidan e'tibor qaratilmaydigan bolalarda hissiy muvozanat buzilishi, diqqatni jamlay olmaslik, ijodiy ko'nikmalarning pastroq rivojlanishi yoki umuman rivijlannmasligi kuzatilmoqda. Ho'sh bolada bunday holatlar kuzatilmasligi yoki bu kabi muammolarga yechim mavjudmi? Bolada shu kabi holatlarni oldini olsak bo'ladimi? kabi savollar yuzaga keladi. Bunday savvollarga yechimni biz neyrografika orqali topishimiz mumkin.

Avvalo, neyrografika nima?

Neyrografika- bu psixologiya va san'atni birlashtirilgan ijodiy usul bo'lib unda odam o'z hissiyotlarini chizish orqalim ifoda etadi. Neyrografika texnikasi 2014-yilda rossiyalik psixolog va dizayner Pavel Piskov tomonida yaratilgan. Neyrografika-miyya faoliyatini faollashtiradi va bolalarning kognitiv, hissiy-irodaviy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi. Oddiyligi va moslashuvchanligi tufayli neyrografika har qanday yoshdagi odamlar uchun , bu nafaqat kattalar, balki bolalar, jumladan, erta bolalik davridagilar uchun ham foydalidir. Ushbu san'at turi bolalarga hissiyotlarni qayta ishslash va ilg'or badiiy qobiliyatni talab qilmasdan ijodiy muammolarni hal qilish

ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish orqali foydali bo'lishi mumkin. Yosh bolalar uchun neyrografik rasm erta kognitiv va hissiy rivojlanishda muhim bo'lgan ongni, o'z-o'zini anglashni va hissiy tartibga solishni rag'batlantirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagি bolalar miyasi juda tez rivojlanib, yangi ma'lumotlarni faol ravishda qabul qiladi. Neyrografika usullari bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki ular miyaning muhim sohalarini faollashtiradi:

- ✓ Kognitiv funktsiyalar,
- ✓ Hissiy rivojlanish,
- ✓ Ijodiy qobiliyatlar
- ✓ Aloqa va ijtimoiylashuv

Neyrografik mashqlar miyani faollashtiradi, xotirani yaxshilaydi, diqqatni jamlashni o'rgatadi va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida neyrografika usullaridan keng foydalanish mumkin. Masalan, bolalarning o'yin faoliyatini boyitish, qo'l harakatlarini rivojlantirish, tasavvur qilish va ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun quyidagi amaliy texnikalarni qo'llash mumkin:

- Chizish, bo'yash, haykaltaroshlik
- Musiqa va raqs
- O'yinlar va teatrlashtirilgan tomoshalar
- Hikoya va ertaklar yaratish

Neyrografik usullardan foydalanish bolalarda ijodiy qobiliyatni, hissiy intellektni va muloqot qobiliyatni rivojlantiradi.

Neyrografika usullari bolalarning bir-biri bilan muloqot qilish va o'zaro munosabatlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Neyrografik o'yinlar va mashqlar bolalarni birgalikda ishlashga, fikr almashishga, bir-birlarini tinglashga va hamkorlik qilishga o'rgatadi. Masalan, "Hissiyotlarning rangi" deb nomlangan o'yin bolalarga hissiyotlarini ifoda etish va tushunishda yordam beradi. Ular har bir hissiyot uchun rang tanlab, o'zaro munosabatlarini kuchaytiradi va empatiyani rivojlantiradi.

Neyrografik yondashuvlar bolalarning nutq va kognitiv rivojlanishini ham yaxshilashga yordam beradi. Masalan, "So'zlarning rasmi" deb nomlangan texnikada bolalar so'zlarni tasvirlashda, ularning ma'nosini tushunishda va yangi so'zlarni o'rganishda qiyinchiliklarni engishadi. Boshqa neyrografik mashqlar esa bolalarni mantiqiy fikrlash muammoni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Neyrografika orqali bolalar o'z fikrlarini ifoda etish, yangi ma'lumotlarni qabul qilish va muammolarni hal qilishda samaraliroq bo'lishadi. Neyrografika bolalarning hissiy-irodaviy sohasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Neyrografik mashqlar stressni kamaytirishga, hissiyotlarni boshqarishga va o'zini tutishni tartibga solishga yordam beradi.

Masalan, "Hissiy chizish" deb nomlangan texnikada bolalar o'zlarining hissiyotlarini chizish orqali ularni ifoda etishadi va tushunishadi. Bu esa, ularni hissiyotlarini boshqarish va ularga moslashishga o'rgatadi.

Neyrografika shuningdek, bolalarning o'ziga ishonchini oshirish va o'zlarini yanada mustaqil his qilishlariga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida neyrografika usullaridan foydalanishda quyidagi nuqtalarni e'tiborga olish kerak:

- Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.
- Mashqlarni bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlari asosida tanlash.
- Mashqlarni o'yin shaklida o'tkazish.
- Bolalarga ijobiy va rag'batlantiruvchi muhit yaratish.

Neyrografika usullaridan foydalanish bolalarning rivojlanishini tezlashtiradi, ularning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini oshiradi va ularning o'zini tutishini yaxshilaydi. Bundan tashqari neyrografika bolalarning hissiy rivojlanishiga ta'siri ham mavjud. Ijobiy hissiyotlar:Neyrografika bolalarda quvonch va g'urur hissini uyg'otadi. Ular o'z asarlaridan faxrlanadilar.

- Xotirjamlik:Chizish jarayoni bolalarni tinchlantiradi. Ular stress va bezovtalikni yengishni o'rganadilar.
- O'ziga ishonch:O'z asarlarini yaratish va namoyish etish orqali bolalar o'ziga ishonchni oshiradilar.
- O'zaro muloqot: Bolalar o'z asarlarini ko'rsatib, fikr almashadi. Bu do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi.
- Empatiya: Boshqalarning asarlarini tushunish orqali empatiya rivojlanadi. Bolalar o'zgalar his-tuyg'ularini anglay boshlaydi.
- O'zini ifoda etish:Neyrografika orqali bolalar o'zlarini erkin ifoda etishni o'rganadilar. Bu o'ziga ishonchni oshiradi.

Ota-onalar va tarbiyachilar maktabgacha yoshdagি bolalarning rivojlanishida neyrografik usullardan foydalanishning foydasini bilishlari va ularni qo'llashga harakat qilihlari kerak. Neyrografik mashqlarni uyda va ta'lim muassasalarida o'tkazish mumkin. Quyida berib o'tiladigan takliflar ota-onalar va tarbiyachilarga yordam berishi mumkin:

- ✓ Bolalarni chizish, bo'yash, haykaltaroshlik, musiqa va raqs kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishga rag'batlantiring.
- ✓ Bolalarni ertaklar yaratishga, o'yinlar o'ynashga va ijodiy faoliyatlar bilan shug'ullanishga undang.
- ✓ Bolalar bilan birgalikda neyrografik mashqlarni o'tkazing.
- ✓ Neyrografika bo'yicha qo'llanmalar va o'quv materiallaridan foydalaning.

Maktabgacha yoshdagи bolalarning rivojlanishiga neyrografikaning ta'siri katta. Neyrografik usullar bolalarni rivojlantirishda keng qo'llanilishi mumkin va ularning ijodiy, kognitiv va hissiy-irodaviy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Quyidagi

takliflar neyrografik usullarni maktabgacha ta'lismizda yanada samarali qo'llashga yordam berishi mumkin:

- ✓ Maktabgacha ta'lismizda muassasalarida neyrografika bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash kurslarini o'tkazish.
- ✓ Neyrografik usullardan foydalanishga qaratilgan ta'lismizda dasturlarini ishlab chiqish ota-onalar uchun neyrografika bo'yicha ma'lumot beruvchi seminarlar tashkil etish.
- ✓ Neyrografika - bu bolalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan zamонавија va samarali yondashuv.

Xulosa qilib aytganda neyrografik usullardan foydalanish bolalarning salohiyatini ro'yobga chiqarishga va ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga yordam beradi. Neyrografika keljakda ta'lismizda ajralmas qismiga aylanishi mumkin. U o'qitish usullarini yangilaydi. Bolalar neyrografika orqali o'zlarini chuqurroq anglashni o'r ganadilar, bu keljakda muhim hayotiy ko'nikma bo'ladi. Neyrografika bilan shug'ullangan bolalar keljakda ijodiy sohalarda muvaffaqiyatga erishishi ko'zda tutilmoxda.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maxmudova S. (2024). MAKATABGACHA YOSHDAGI YOSHDAGI BOLALARGA XORJIY TIL (INGLIZ TILI) GA O'RGATISHDA "QUVNOQ BALIQCHALAR" DIDAKTIK O'YININI QO'LLASH SAMARASI. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 37-40. <https://doi.org/10.2024/x0q1yq52>
2. Makhmudova Oybarchin. (2023). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF VISUAL ACTIVITIES OF PRESCHOOL CHILDREN. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8(8), 101–105. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.815>
3. S.A.Maxmudova, & Qambarova, Y. (2024). NEYROGIMNASTIKANING MAKATABGACHA YOHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI, O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 112–115. Retrieved from
4. Maxmudova, S. (2024). MAKATABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING METODIK TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 205–210. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1057>
5. Oybarchin Makhmudova, . (2022). PROBLEMS OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN IN FINE ACTIVITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 17–21. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-03>
6. Makhmudova, O. (2024). THEORETICAL VIEWS OF FINE ARTS AS A FACTOR OF INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF A PRESCHOOL CHILD. University Research Base, 515–518. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/562>